



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No5
MAXSUS SON



**Toshkent davlat
iqtisodiyot universiteti**



**“Yuksak intellektual yoshlar
hamdo‘stligi-kelajak
iqtisodiyot poydevori” talabalar
xalqaro festivali doirasida
o‘tkazilgan “O‘zbekistonning
“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish
strategiyasi: mavjud muammo
va istiqbolli imkoniyatlar”
mavzusidagi maqolalar to‘plami**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2024-yil
17-18-oktabr**



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 131 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 19-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH STRATEGIYASI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR



Akramova Aziza Abduvohidovna

TDIU, Menejment fakulteti talabasi

Email: azizaakromova272@gmail.com

Annotatsiya: Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlari kabi, O'zbekiston ham iqlim o'zgarishlariga juda zaif hisoblanadi. Iqlim o'zgarishi mamlakatning tabiiy resurslari, qishloq xo'jaligi, yer va suv unumdorligiga tahdid soladi, shuningdek, tabiiy ofatlar xavfini oshiradi. Ushbu maqolada energiyaga yuqori darajadagi qaramlik, suv tanqisligi, ekologik muammolar, texnologik va moliyaviy resurslarning cheklanganligi kabi mavjud muammolar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, samarali suv boshqaruvi, ekologik innovatsiyalar, yashil ish o'rinlarini yaratish va xalqaro hamkorlik kabi istiqbolli imkoniyatlar ham ko'rib chiqiladi. Maqolada O'zbekistonning "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi, uni amalga oshirishda yuzaga kelayotgan muammolar va istiqbolli yechimlar asoslanirilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya, muqobil energiya, ekologik xavfsizlik, barqaror rivojlanish, resurslardan samarali foydalanish, ekologik innovatsiyalar.

Abstract: Like other Central Asian countries, Uzbekistan is highly vulnerable to climate change. A changing climate threatens its natural resources, agriculture, land and water productivity, and increases the risk of natural disasters. This article analyzes current challenges such as high dependence on energy resources, water scarcity, environmental pollution, and limited technological and financial capacity. At the same time, it explores promising opportunities such as the use of renewable energy sources, effective water management, environmental innovations, creation of green jobs, and international cooperation. The article provides a critical evaluation of Uzbekistan's strategy for transitioning to a green economy, highlighting obstacles and proposing actionable solutions.

Key words: green economy, energy efficiency, renewable energy, alternative energy, environmental security, sustainable development, efficient resource use, environmental innovations.

Аннотация: Как и другие страны Центральной Азии, Узбекистан весьма уязвим к изменениям климата. Изменение климата угрожает его природным ресурсам, сельскому хозяйству, плодородию земли и воды, а также увеличивает риск природных катастроф. В статье рассматриваются такие актуальные проблемы, как высокая зависимость от энергоресурсов, дефицит воды, экологическое загрязнение, ограниченность технологических и финансовых ресурсов. Также освещаются перспективные возможности: использование возобновляемых источников энергии, эффективное управление водными ресурсами, экологические инновации, создание «зеленых» рабочих мест и международное сотрудничество. Статья обосновывает стратегию перехода Узбекистана к «зеленой экономике», анализирует проблемы и предлагает пути их решения.

Ключевые слова: зеленая экономика, энергоэффективность, возобновляемая энергия, альтернативная энергетика, экологическая безопасность, устойчивое развитие, эффективное использование ресурсов, экологические инновации.

KIRISH

Hozirgi vaqtda dunyo hamjamiyati oldida jahon iqtisodiyotini rivojlantirishda bir qator muammolar va to'siqlar yuzaga kelmoqda. Inson ehtiyojlari cheklanmagan, biroq resurslar cheklanganligi sababli kundankunga mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, tabiiy resurslarga bo'lgan ehtiyojning keskin ko'payishiga olib kelmoqda. Sababi, bugungi kunda faoliyat yuritayotgan korxona va zavodlar asosan qazilma yoqilg'ilarda ishlashga moslashtirilgan.

Bundan tashqari, ushbu korxona va zavodlarning qazilma yoqilg'ilarga asoslangan iqtisodiyotdagi faoliyati natijasida atmosferaga muntazam ravishda katta miqdorda issiqxona gazlari (IG) chiqarilmoqda. Bu esa, o'z




navbatida, iqlim o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Uning oqibatida qurg'oqchilik, yer degradatsiyasi, ko'chatlarning nobud bo'lishi, ekin yerlarining qisqarib ketishi hamda boshqa ijtimoiy muammolar vujudga kelmoqda.

Yuqoridagi muammolar sababli joriy jahon iqtisodiyoti modeli barqaror emasligi ayon bo'ldi. Shu munosabat bilan rivojlanish maqsadlarini qayta ko'rib chiqish zarurati paydo bo'ldi va yaqin istiqbolda eng maqbul yo'l – bu "yashil iqtisodiyot"ga o'tish ekani anglab yetildi.

Dunyo miqyosida ekologik barqarorlik va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolar global iqtisodiy va siyosiy kun tartibining eng dolzarb masalalaridan biriga aylangan. Mamlakatimiz esa iqlim o'zgarishiga zaiflik darajasi bo'yicha 191 ta davlat orasida 96-o'rinni egallaydi (ND-GAIN, 2019-yil). O'zbekiston zilzilalar hamda toshqinlarga moyil bo'lib, har yili o'rtacha 1,4 million kishi ushbu tabiiy ofatlardan jabr ko'radi va deyarli 3 milliard AQSh dollari miqdorida zarar yetkaziladi.

Mintaqaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, Markaziy Osiyo mintaqasidagi rivojlanish muammolarining qariyb 70 foizi chuchuk suv tanqisligi bilan bog'liqdir [1]. Jahon Resurslari Instituti ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston suv tanqisligi ta'siriga eng ko'p duch kelayotgan 25 davlat qatoriga kiradi. Iqlim o'zgarishi esa bu holatni yanada keskinlashtiradi. O'tkir suv tanqisligi va yer degradatsiyasi qishloq xo'jaligi hosildorligiga, shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda [2].

Yashil iqtisodiyotga o'tish – bu iqtisodiy o'sishni, atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy tenglikni birlashtiradigan bir jarayon. U quyidagi asosiy jihatlarga asoslanadi:



1-rasm Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi [4].

Shu bilan birga, O'zbekistonning geografik joylashuvi va tabiiy resurslardan foydalanish imkoniyatlari mamlakat uchun istiqbolli imkoniyatlar yaratadi. Quyosh va shamol energiyasi kabi qayta tiklanadigan energiya manbalarining mavjudligi, xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilish imkoniyati, texnologik innovatsiyalarni joriy etish jarayonidagi global tajribalar mamlakatning yashil iqtisodiyotga muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlash uchun ulkan salohiyatni namoyish etadi. Shu munosabat bilan, O'zbekistonning "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi va xalqaro ekologik inqirozga qarshi kurashdagi ishtirokini kuchaytirishda muhim o'rin tutadi. Mazkur tadqiqot, So'nggi bir necha o'n yilliklarda O'zbekistonning jadal iqtisodiy o'sishi asosan resurslarni qazib olish hamda iqtisodiyotning tog'-kon sanoati va ishlab chiqarish tarmoqlari hisobiga ta'minlandi. Biroq, bu taraqqiyot qimmat narxga tushdi. Qazib olinadigan yoqilg'iga asoslangan og'ir energiya balansi, energiyani ko'p talab qiluvchi sanoat sektori va barcha tarmoqlar bo'yicha past energo-samaradorlik tufayli hozirgi vaqtda mamlakat iqtisodiyoti issiqxona gazlari emissiyasi intensivligi bo'yicha dunyoda beshinchi o'rinda, Evropa va Markaziy Osiyoda esa eng oldinda turadi [3]. O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida duch keladigan asosiy muammolarni tahlil qilish va mavjud imkoniyatlarni baholash orqali, mamlakat oldida turgan strategik vazifalar va imkoniyatlarni yoritishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yashil iqtisodiyotga o'tishning tadqiqot metodologiyasi bir qator muhim aspektlarni o'z ichiga oladi. Quyidagi usullar va yondashuvlar ushbu jarayonni o'rganish uchun foydali bo'lishi mumkin:

Maqsadlarni aniqlash: Yashil iqtisodiyotga o'tishning asosiy maqsadlari, jumladan, ekologik barqarorlik, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy adolatni belgilash.

Literatura tahlili: Yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish va ekologik innovatsiyalar bo'yicha mavjud tadqiqotlarni o'rganish.



Monitoring va baholash: Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonidagi o'zgarishlarni kuzatish va baholash tizimini yaratish.

Bu metodologiyalar yordamida yashil iqtisodiyotga o'tishning barcha jihatlarini chuqur o'rganish va samarali strategiyalar ishlab chiqish mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash, balki kelajak avlodlar uchun toza va barqaror muhit yaratish maqsadida amalga oshiriladi. Bu jarayon ko'plab muammolarni hal qilishni va barcha qatlamlar ishtirokini talab etadi. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi – bu ekologik barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va ijtimoiy farovonlikni oshirishga qaratilgan kompleks yondashuvdir. Bunday strategiyaning mavjud muammolarini va ularni xal etish yo'llarini ko'rib chiqamiz.

Investitsiya va moliyaviy cheklolar: Yashil texnologiyalar va infratuzilmalarni rivojlantirish uchun katta investitsiyalar talab etiladi, ammo ko'plab mamlakatlarda bunday resurslar yetishmaydi.

Texnologik tajriba yetishmasligi: Yashil iqtisodiyotga o'tish uchun yangi texnologiyalar va innovatsiyalar kerak, lekin ularning samaradorligi va keng qo'llanilishi masalalari hal qilinmagan.


Ta'lim va ijtimoiy savodxonlik yetishmasligi: Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish haqidagi bilimlar keng jamoatchilikda yetarlicha tarqatilmagan.

Energetika sohasidagi qaramlik: O'zbekiston energiya ehtiyojlarining katta qismini qazilma yoqilg'ilar, ayniqsa tabiiy gazdan oladi. Bu energiya manbalari ekologik jihatdan toza emas va ularning narxi global bozorda beqarordir. O'zbekiston "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish uchun qayta tiklanadigan energiya manbalariga (quyosh, shamol, gidroenergetika) ko'proq sarmoya kiritishga majbur.

Suv resurslarining tanqisligi: O'zbekiston suv resurslari jihatidan qashshoq davlat hisoblanadi. Qurg'oqchilik, suvni samarali ishlatmaslik va aholining o'sib borayotgan ehtiyojlari suv tanqisligini kuchaytiradi. O'zbekiston suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilishi, sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilishi va suvni tejimli qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishga ko'proq e'tibor berishi kerak.

Atrof-muhit ifloslanishi: Sanoat faoliyati, transport va qishloq xo'jaligi O'zbekistonning atrof-muhitini ifloslantiruvchi omillar hisoblanadi. Bu ifloslanish havo sifatini yomonlashtiradi, suv havzalarini ifloslantiradi va tuproqning unumdorligini pasaytiradi. O'zbekiston sanoat korxonalarini tozalash texnologiyalarini joriy qilishi, transport vositalarining emissiyasini kamaytirishi va ekologik jihatdan toza qishloq xo'jaligi amaliyotlarini qo'llashi kerak.


Yuqoridagi tahlil ma'lumotlaridan ham ko'rishimiz mumkinki yashil iqtisodiyotga o'tish mamlakat iqtisodiyoti rivoji va aholi turmush tarzini yaxshilash yo'lida ijobiy natija beradi. Masalan O'zbekistonning iqtisodiyoti yashillashuv jarayonida ko'plab islohotlar olib bormoqda. Mamlakatning iqtisodiyotni yashillashuvi, asosan, energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlar orqali amalga oshirilmoqda. Quйда mamlakatimizda energiya iste'moli va qayta tiklanuvchi energiya manbalari haqida bir nechta ma'lumotlarni ko'rib chiqamiz.



2-rasm O'zbekistonda energiya iste'moli samaradorligi (2015–2023 yillar) [4].



Rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki 2015-2020-yillar kesimida elektr energiyasi iste'moli hajmi tur xil o'sish tendensiyasiga ega elektr energiyasi samaradorligi esa 2020-yilga kelib 3.2 foizga ortganligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa 2020-yil elektr energiyasi iste'moli xajmi o'tgan yilga nisbatan 0.5 foizga ortganligini ko'rishimiz mumkin. Bunga sabab esa COVID-19 pandemiyasi sabab mamlakatda ko'plab korxona va zavodlar faoliyatini to'xtatishga majbur bo'ldi bu esa o'z navbatida mamlakat iqtisodiyotiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi, qolaversa YAIM o'sishi ham o'tgan yillarga nisbatan kesin tushib ketishiga sabab bo'ldi. Keyingi yillarda esa mamlakat YAIM va energiya samaradorligini o'sish tendensiyasini ko'rishimiz mumkin lekin bu ko'rsatkichlar 2024-iyun oyi ma'lumotlari bo'lganligi sababli biroz pastligini ko'rishimiz mumkin ammo bu ko'rsatkichlar yil yakuniga qadar ortib boradi. Shu bilan birga, mamlakatda ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha qabul qilinayotgan davlat dasturlari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini qamrab olishi kerak. Yuqoridagi rasm ma'lumotlarida elektr energiya iste'molini ko'rib chiqqan bo'lsak quyida esa umumiy energiya ishlab chiqarish (MWh)ni tarkibida qayta tiklanuvchi energiya ulushini foizlarda ko'rib chiqamiz. Bu esa o'z navbatida mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tishida samarali ko'rsatkichlari qatoridan joy oladi



3-rasm Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining rivojlanishi (2015–2023 yillar)[4].

Yuqoridagi rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki 2015-yilda umumiy elektr energiya ishlab chiqarish tarkibida qayta tiklanuvchi energiyalar ulushi 8.5 foizni tashkil qilgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2023-yilga 19.2 foizga ortgan ya'ni bu yillar kesimida o'sish tendensiyasiga ega. Albatta bu ijobiy holat, lekin bu ko'rsatkich bir muncha pastroq, Prezidentimizning 2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida qarorida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko'prog'iga yetkazish [5] haqida alohida takidlab o'tganlar.


Qayta tiklanadigan energiya resurslari – tabiiy manbalardan olinadigan va tabiiy jarayonlar orqali qayta tiklanishi mumkin bo'lgan energiya turlaridir. Bu energiya manbalari ekologik toza hisoblanib, cheksiz bo'lib ko'riladi, chunki ular doimiy ravishda tabiiy sikllar orqali tiklanadi. Asosiy qayta tiklanadigan energiya manbalari quyidagilardir:

Quyosh energiyasi – Quyoshdan to'g'ridan-to'g'ri olinadigan energiya. Quyosh panellari orqali elektr energiyasi ishlab chiqariladi.

Shamol energiyasi – Shamol yordamida ishlaydigan turbinalar elektr energiyasi hosil qiladi. Bu turdagi energiya asosan shamolli hududlarda samarali hisoblanadi.

Gidroenergiya – Suv oqimlari orqali hosil qilinadigan energiya turi. Katta daryolar va suv omborlari yordamida gidroelektr stansiyalarida ishlab chiqariladi.


Biomassa – O'simliklar, qoldiqlar va boshqa organik materiallardan olinadigan energiya manbasi. Bu turdagi energiya o'simliklar va qoldiqlarni yoqish yoki biologik jarayonlar orqali olinadi.



2-rasm. Elektr energiyasi ishlab chiqarish umumiy hajmida qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi [4].

Ayrim mamlakatlarda suv resurslari seroblighi sababli elektr energiyasini ishlab chiqarish xarajatlari nisbatan kam. Xususan, Tojikiston ishlab chiqaradigan elektr energiyasining 98%foizi Hidroelektr stansiyalar hissasiga to'g'ri keladi. Qirg'izistonda esa mazkur ko'rsatkich 91% foizni tashkil etadi. Shu sababli mazkur mamlakatlarda tariflar ham nisbatan arzon. Turkiyada elektr energiyasi ishlab chiqarish umumiy hajmida qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi 54%foizni tashkil etadi. O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yanada rivojlantirishning maqsadli parametrlari ishlab chiqilgan hamda mazkur manbaalar ulushini 2030-yilga borib elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmini 40 foizga yetkazish reja qilingan.

Shuningdek hozirgi vaqtda jamoat transportining past darajada rivojlangani tufayli ko'chalarda avtotransportlar tirbandligi yuzaga keladi, bunda hosil bo'ladigan zararli chiqindilar, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, katta shaharlardagi zararli chiqindilar umumiy hajmining 80 foizini tashkil qiladi. Kuzgi barglarni ochiq havoda yoqish va qattiq yoqilg'i bilan individual isitish amaliyoti shahar havosida mavsumiy ifloslantiruvchi moddalar hosil qilib, aholi salomatligiga salbiy ta'sir qiladi.



2-rasm. 2023-yil O'zbekistonda energiya iste'moli tarkibi. [6].



Yuqoridagi ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2023-yil O'zbekiston aholisining asosiy energiya sarfi gaz, ko'mir va qayta tiklanuvchi energiya manbalari ekanligini ko'ramiz. Bundan ko'rishimiz mumkinki gaz 70% ko'rsatgich bilan energiya istemolining eng yuqori qismini egallaydi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari ko'rsatgichning 10%ini tashkil qiladi xolos. Bu esa energiya istemolini tog'ri taqsimlash zarurligini anglatadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi (O'zR) bozor iqtisodiyoti tizimini barpo etish va mamlakatni iqtisodiy hamkorlik uchun ochish bo'yicha siyosiy islohotlarni amalga oshirmoqda. Energetika sohasi O'zbekiston Respublikasining hukumati uchun modernizatsiya qilinishi kerak bo'lgan ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Energetika sektorini transformatsiya qilishning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: energetika davlat korxonalari faoliyatining yuqori ekspluatatsion va moliyaviy ko'rsatkichlarini ta'minlash, infratuzilma muammolarini hal qilish, sektorni qayta tuzish va raqobatbardosh bozorga o'tish, toza energiyaga o'tishda energiya qiymatini hosil qiluvchi zanjirlarni karbonsizlantirish, tiklanadigan energiya manbalaridan (TEM) foydalanish va energiya samaradorligini oshirishga ko'maklashish, shuningdek, xususiy sektorni jalb qilish va sohani institutsional va bozor tuzilmasini takomillashtirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda ayrim takliflarni shakllantirishga qaror qildik.

Qayta tiklanadigan energiya manbalari: O'zbekiston quyosh va shamol energiyasi kabi qayta tiklanadigan energiya manbalariga ega. Ularni rivojlantirish energetikaga bo'lgan qaramlikni kamaytirish va emissiyani qisqartirishga yordam beradi. O'zbekiston qayta tiklanadigan energiya sohasiga sarmoya kiritishga yo'naltirilgan siyosatlarini ishlab chiqishi va tegishli texnologiyalarni joriy qilishi kerak.

Suv resurslarini boshqarish: O'zbekiston suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashi, sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilishi va suvni tejamli qishloq xo'jalik usullarini joriy qilishi mumkin. Bu suv sarfini kamaytirishga va suv resurslarini oqilona taqsimlashga yordam beradi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish: O'zbekiston sanoat korxonalarini tozalash texnologiyalari bilan ta'minlashi, transport vositalarining emissiyasini kamaytirishi va atrof-muhitni muhofaza qilish qonunchiligini takomillashtirishi mumkin. Bu choralar havo, suv va tuproq ifloslanishini kamaytirishga yordam beradi.

O'zbekistonning "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi muvaffaqiyatli bo'lishi uchun turli sohalarida keng qamrovli choralarni ko'rish kerak. O'zbekiston hukumati qayta tiklanadigan energiya manbalariga sarmoya kiritishni rag'batlantirish, suv resurslarini boshqarishni yaxshilash, atrof-muhitni muhofaza qilishni kuchaytirish va iqlim o'zgarishiga moslashish strategiyasini ishlab chiqishga e'tibor qaratishi kerak. Ushbu choralar O'zbekistonning iqtisodiy o'sishini barqaror va ekologik jihatdan toza qilishga yordam beradi.

1-jadval. 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturi doirasida amalga oshirilishi reja qilingan maqsadlar [7].

№	2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturi	Kutilayotgan natijalar
1	Issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalari	2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish
2	Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish	ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko'prog'iga yetkazish
3	Sanoat sohasida energiya samaradorligi	kamida 20 foizga oshirish
4	Yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi hajmi	qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish;
5	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish	1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug'orish texnologiyasini joriy etish
6	Yiliga 200 million ko'chat ekish va ko'chatlarning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish	shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish
7	Respublika o'rmon fondi zaxiralari	fond zaxiralari ko'rsatkichini 90 million kub metrdan ortiqroqqa yetkazish
8	Hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash	qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish

Oxirgi vaqtlarda yurtimiz, xususan, poytaxtimiz hududida sodir bo'layotgan havo ifloslanishiga olib kelgan sabablardan biri bu, shubhasiz, shahar hududida yashil maydonlarning keskin kamayishidir. Shuningdek, mamlakatimiz oldida turgan asosiy muammolardan biri bu suv ta'minotidan samarali foydalanish hisoblanadi. Xuddi shu kabi, jamiyatimiz oldida turgan asosiy muammolardan yurtimizda "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish



orqali qutulish eng samarali usul hisoblanadi. Yuqoridagi jadval ma'lumotlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, 2030-yilgacha issiqxona gazlarining chiqish darajasini 35%ga kamaytirish, shaharlarda yashil maydonlarni 30%ga kengaytirish va 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug'orish texnologiyasini joriy etish yuqorida aytib o'tilgan muammolarning samarali yechimlari sifatida qaraladi.

Munozara bo'limi

O'zbekistonning "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi mamlakatda ekologik muammolarni hal qilish, iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Ushbu strategiyaning asosiy maqsadi ekologik zararlarni kamaytirish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va yashil texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiyotning barqarorligini oshirishdir. O'zbekistonning qulay iqlim sharoitlari va boy tabiiy resurslari bu yo'nalishda katta imkoniyatlar yaratadi, ammo mavjud muammolarni hal etish hamda tegishli resurslarni safarbar qilish zarur.

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasidagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha bir qator takliflar mavjud. Bular:

Texnologiyalarni yangilash: Yashil texnologiyalarni keng joriy etish uchun hukumat tomonidan soliq imtiyozlari, subsidiyalar va boshqa qo'llab-quvvatlash dasturlarini kuchaytirish zarur.

Qonunchilikni rivojlantirish: Yashil iqtisodiyotga o'tishni rag'batlantiruvchi qonunchilik bazasini yaratish, ekologik normalar va standartlarni joriy etish kerak.

Ta'lim va kadrlar tayyorlash: Yashil iqtisodiyot bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va ta'lim dasturlarini kengaytirish orqali malakali kadrlar tayyorlashga e'tibor qaratish lozim.

Xalqaro tajriba va investitsiyalarni jalb qilish: Chet el tajribasini o'rganish, xalqaro moliya institutlari va donor tashkilotlari bilan hamkorlikda yashil iqtisodiyotga o'tishga oid loyihalarni amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash.

Jamoatchilik xabardorligini oshirish: Yashil iqtisodiyotning ahamiyati haqida keng omma va biznes sektoriga targ'ibot olib borish orqali ekologik madaniyatni oshirish lozim.

Bu taklif va xulosalar orqali O'zbekiston yashil iqtisodiyotga muvaffaqiyatli o'tib, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashga erishishi mumkin. Qolaversa yuqoridagi harakatlar O'zbekistonning barqaror va yashil kelajagini shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Berndtsson, R. va Tussupova, K. 2020. "The Future of Water Management in Central Asia." Suv 12 No. 8: 2241. <https://doi.org/10.3390/w12082241>.
2. Jahon resurslari institutining Aqueduct tools ma'lumotlariga ko'ra. <https://www.wri.org/insights/17-countries-home-one-quarter-worlds-population-face-extremely-high-water-stress>.
3. Yoqilg'i-energetika kompleksi mamlakat k. a. emissiyasining 9/10 qismini tashkil etadi, issiqxona gazlari emissiyasi. Faktlar jadvali: O'zbekiston. <https://www.climatelinks.org/resources/greenhouse-gas-emissions-factsheet-uzbekistan>, Jahon resurslari instituti Iqlimni tahlil qilish ko'rsatkichlari vositasi (WRI CAIT) ma'lumotlar bazasi asosida
4. The world bank IBRD IDA| WORLD BANK GROUP ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi (World Bank Document)
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.12.2022 yildagi PQ-436-son.
6. [<https://www.iea.org/countries/uzbekistan/electricity>]
7. <https://lex.uz/ru/docs/-6303230>



MUNDARIJA

YOSHLAR – ERTAMIZ EGALARI!.....	5
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna	
ОСНОВНЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ ОЦЕНКИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НАЛОГОВЫХ ОРГАНОВ И ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОСТИ	6
Абдурахимов Абдор Зафарович, Файзиев Фаррух Абдуллахожаевич	
О‘ЗBEKISTONNING “YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR	13
Akramova Aziza Abduvohidovna	
“O‘ZBEKISTONNING “YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR”	20
Eldorbekov G‘ofurbek Iskandarbek o‘g‘li	
BARQAROR KELAJAK UCHUN BudgetLASHTIRISH: YASHIL TASHABBUSLAR UCHUN DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISH.....	27
Meyliev Obid Raxmatullayevich, Gofurova Kamola Xayrulla qizi	
UZBEKISTAN’S STRATEGY FOR TRANSITION TO “GREEN ACCOUNTING”: EXISTING PROBLEMS AND PROMISING OPPORTUNITIES.....	32
Ochilov Farxodjon Shavkatjon ugli, Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna	
O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA SUN‘IY INTELLEKTNING O‘RNI: URBANIZATSIYA SHAROITIDA EKOLOGIK VA IQTISODIY INTEGRATSIYALASHUV.....	37
Kuvatova Oliya Sheraliyevna, Husenov Muhridin Bahriddinovich	
UZBEKISTAN’S TRANSITION TO A GREEN ECONOMY STRATEGY: CURRENT CHALLENGES AND PROMISING OPPORTUNITIES.....	43
Ikromova Munisa Ikrom qizi	
O‘ZBEKISTONDA “YASHIL” IQTISODIYOT XARAJATLARINI DAVLAT BUDJETIDAN MOLIYALASHTIRISHNING AHAMIYATI.....	48
Isaxonova Ruxshona Muzaffar qizi	
YASHIL IQTISODIYOTNING DOLZARBLIGI HAMDA BARQAROR TARAQQIYOTGA TA’SIRI.....	54
Isroilov Eldorbek Elyorbek o‘g‘li	
GREEN FINANCE IN UZBEKISTAN: ADVANCING SUSTAINABLE DEVELOPMENT THROUGH INNOVATIVE STRATEGIES	60
Jenisbekova Nazerke Jenisbekovna Yuldasheva Nadira Viktorovna	
“YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASI: O‘ZBEKISTON VA XITOIY	69
Lazimov Ilhombek Komil o‘g‘li, Nazarov Nodirjon Namoz o‘g‘li	
O‘ZBEKISTONNING YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH JARAYONIDA XORIJ TAJRIBALARINI JORIY ETISH ORQALI SAMARADORLIKKA ERISHISH TAMOIYILLARI	77
Mamayusupova Shohina Ulug‘bek qizi	
СТРАТЕГИЯ ПЕРЕХОДА УЗБЕКИСТАНА К “ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ”: СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ.....	83
Махмудова Юлдузхон Бахромжон кизи	
O‘ZBEKISTONNING “YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR	89
Mirzohamdamov Abdurasul Ravshan o‘g‘li, Beknazarov Zafarjon Ergashevich	



O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH STRATEGIYASI VA BU ORQALI BARQAROR IQTISODIYOTGA ERISHISHI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR.....	94
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi	
СТРАТЕГИЯ ПЕРЕХОДА УЗБЕКИСТАНА К "ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ": СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	100
Усмонов Дониёр Ибрагимович, Насырходжаева Диляфруз Сабитхановна	
NEW INSURANCE PRODUCTS IN GREEN ECONOMY: NEW OPPORTUNITIES AND RISKS IN THE FINANCIAL SECURITY CONTEXT.....	110
Xodjaraxmanova Nazira Bakhtiyar kizi	
PRIORITY DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN ECONOMY IN UZBEKISTAN	117
Yo'ldoshev Ozodbek Abduvohid o'g'li	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA RESURSLARINI MOLIYALASHTIRISHGA OID LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISH VA ULARNING STATISTIKASI	122
Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li	



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2024-yil 17-18-oktabr, № 5 maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
